

O‘ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARIGA O‘TISHNING  
O‘ZIGA XOS YO‘LI, TARAQQIYOTNING “O‘ZBEK MODELI”

**Ro‘ziqulov Sherzodbek Maribjonovich**

*Andijon davlat pedagogika instituti,*

*Tarix fani o‘qituvchisi v.b. dotsenti.*

**To‘xtamurodova Ominaxon Botirjon qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti, Pedagogika*

*fakulteti, Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida iqtisodiy mustaqillikka erishish, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimidan erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos strategik yo‘li tahlil qilinadi. Tadqiqotda taraqqiyotning dunyo miqyosida tan olingan «o‘zbek modeli»ning besh tamoyili: iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, davlatning bosh islohotchi ekanligi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat hamda islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi batafsil yoritib berilgan.*

*Maqolada milliy xususiyatlar va xalqaro tajribalarning uyg‘unlashuvi natijasida erishilgan iqtisodiy barqarorlik, tarkibiy o‘zgarishlar va investitsiya muhitining jozibadorligi masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, «o‘zbek modeli»ning bugungi kundagi yangilanish jarayonlari va Harakatlar strategiyasi doirasidagi davomiyligi xususida xulosalar bayon etilgan*

**Kalit so‘zlar:** *O‘zbek modeli, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy islohotlar, besh tamoyil, ijtimoiy himoya, investitsiya, davlat boshqaruvi, bosqichma-bosqichlik.*

**Аннотация:** *В статье анализируется уникальный стратегический путь достижения экономической независимости Республики Узбекистан за годы независимости, перехода от административно-командной системы к свободной рыночной экономике. В исследовании подробно рассматриваются пять принципов всемирно признанной «узбекской модели» развития: приоритет экономики над политикой, государство как главный реформатор, верховенство закона, сильная социальная политика и поэтапная реализация реформ.*

*Особое внимание в статье уделено вопросам экономической стабильности, структурных изменений и привлекательности инвестиционного климата, достигнутых в результате сочетания национальных особенностей и международного опыта. В нем также излагаются выводы о современных процессах обновления «узбекской модели» и ее продолжении в рамках Стратегии действий.*

**Ключевые слова:** *узбекская модель, рыночная экономика, экономические реформы, пять принципов, социальная защита, инвестиции, государственное управление, постепенность.*

**Annotation:** *This article analyzes the unique strategic path of Uzbekistan's economic independence and transition from an administrative-command system to a free market*

*economy during its years of independence. The study provides a detailed description of the five principles of the world-recognized "Uzbek model" of progress: the primacy of the economy over politics, the state as the main reformer, the rule of law, strong social policy, and the gradual implementation of reforms.*

*The article focuses on economic stability, structural changes, and the attractiveness of the investment environment, achieved as a result of the combination of national characteristics and international experience. It also presents conclusions on the current renewal processes of the "Uzbek model" and its continuation within the framework of the Action Strategy.*

**Keywords:** *Uzbek model, market economy, economic reforms, five principles, social protection, investment, public administration, gradualism.*

## KIRISH

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi va o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilashi XX asr oxiridagi eng murakkab ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Sobiq mustabid tuzumdan meros qolgan ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi, biryoqlama rivojlangan nochor iqtisodiyot va chuqur ijtimoiy ziddiyatlar sharoitida yangi davlat qurish strategiyasini ishlab chiqish hayotiy zaruriyatga aylangan edi. Ayniqsa, istiqlolning dastlabki yillarida mamlakatning o‘zini-o‘zi mustaqil boshqarish salohiyatiga shubha bilan qarovchi tashqi va ichki qarama-qarshiliklar kuchaygan bir paytda, milliy manfaatlar va xalqaro tajribani uyg‘unlashtiruvchi aniq dastur lozim edi.<sup>32</sup>

Ziddiyatli va murakkab bir davrda O‘zbekiston uchun o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlash, yangi jamiyat barpo qilish uchun o‘z andozasini ishlab chiqish g‘oyatda dolzarb ahamiyatga ega edi. Bunday ulkan vazifani uddalash mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatni, xalqimizning ko‘p asrluk an‘analari, turmush tarzi, dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi va ruhiyatini chuqur tahlil qilishni taqozo etardi. Zero, ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. Ushbu strategiyaning asosiy tamoyillari, amalga oshirish yo‘llari va bosqichlari O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi hamda ilmiy asoslangan mashhur besh tamoyilda o‘z aksini topdi. Mazkur tamoyillar umumlashgan holda 1993-yilda Birinchi Prezidentning «O‘zbekiston: bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» asarida jahon hamjamiyatiga e‘lon qilindi.

"O‘zbek modeli" deb nom olgan taraqqiyot strategiyasi nafaqat bozor iqtisodiyotiga o‘tish mexanizmi, balki milliy davlat va jamiyat qurilishining yaxlit falsafasi bo‘lib xizmat qildi. Bu yo‘lni tanlashda G‘arbda "yovvoyi kapitalizm" deb atalgan va ko‘plab davlatlarda "shok terapiyasi" sifatida qo‘llanilgan larzali usullardan voz kechildi. Buning o‘rniga islohotlarni tadrijiy, ya‘ni evolyutsion va bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyiliga ustuvorlik berildi. Bu yondashuv iqtisodiyotni siyosiy o‘yinlar va mafkuraviy tazyiqlardan

<sup>32</sup> 1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. M. J. Karimova. Toshkent "EFFECT-D" -2022

xoli qilish, davlatning bosh islohotchi sifatidagi mas’uliyatini oshirish hamda qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qildi.

1990-yillarning boshidanoq amalga oshirilgan tub islohotlar — Prezidentlik institutining ta’sis etilishi, ijro hokimiyatining tizimlashtirilishi va qonunni xalq irodasining muqaddas ifodasi hamda "ham qurol, ham qalqon" deb belgilanishi mamlakatda barqarorlikni ta’minlovchi hal qiluvchi omillar bo‘ldi. Aholini ijtimoiy himoyalashning kuchli tizimi yaratilishi va islohotlarning bevosita inson manfaatlariga yo‘naltirilishi O‘zbekistonning o‘ziga xos yo‘lini dunyo miqyosida e’tirof etilishiga sabab bo‘ldi. Binobarin, istiqloqlarning ilk bosqichlaridayoq erishilgan iqtisodiy barqarorlik va millatlararo totuvlik mazkur milliy modelning hayotiyliigi va strategik jihatdan naqadar puxta o‘ylanganligidan dalolat beradi.

## ASOSIY QISM

O‘zbek modelining asosiy tamoyillari Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki yillarida ishlab chiqilgan. U jamiyatimiz hayotini har tomonlama isloh etish va bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, adolatli demokratik davlat qurishning strategik yo‘lidir.

Mamlakatimiz o‘zining ana shu maqsadlariga erishish uchun taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘lini tanladi. Milliy istiqloqlar g‘oyasi ana shu yo‘ldan borayotgan xalqimizni pirovard maqsadlarga yetaklaydi, taraqqiyotning o‘zbek modelini amalga oshirishga yordam beradi. Taraqqiyot modeli deb, muayyan davlat tomonidan bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchi ijtimoiy tuzumga o‘tish yoki biron-bir jamiyatdagi umrini o‘tab bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni zamonaviy talablar asosida isloh etish borasida tanlab olingan rivojlanish yo‘liga aytiladi.<sup>33</sup>

O‘zbekiston tanlab olgan taraqqiyot yo‘li bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tishni ta’minlab beradigan taraqqiyot modeliga misol bo‘la oladi. Dunyoda bu borada ancha tajriba to‘plangan. Masalan, yaponlarning Ikkinchi Jahon urushidan keyingi taraqqiyot yo‘li davlat tuzumi — monarxiyani saqlab qolgan holda, jamiyatdagi hukmron munosabatlarni zamonaviy talablar asosida isloh etish modeliga misol bo‘la oladi.

O‘zbekistonning sobiq ma’muriy-buyruqbozlik tuzumidan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan erkin, demokratik jamiyatga o‘tishining o‘ziga xos va mos yo‘li — jahonda o‘zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo‘lidir. Uning asosiy mazmuni inqilobiy tarzda emas, balki bosqichma-bosqich, ya’ni tadrijiy ravishda isloh etishni nazarda tutadi.

O‘zbek modeli 5ta tamoyildan iborat, bular:

**Birinchi tamoyil** — iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligini ta’minlashdir. Bu qoida iqtisodiyotni ijtimoiy taraqqiyotning asosi deb hisoblab, uni mafkuraviy tazyiqlar va siyosiy kurashlar ta’siridan xoli qilishni nazarda tutadi. Tamoyilga ko‘ra, xo‘jalik faoliyati iqtisodiyotning o‘ziga xos obyektiv qonuniyatlari asosida yuritilishi shart. Bunda siyosat iqtisodiyotdan butunlay uzilib qolmaydi, balki taraqqiyot zarurati nuqtayi nazaridan unga faol ta’sir ko‘rsatib, rivojlanish uchun zarur huquqiy va ijtimoiy sharoitlarni yaratadi.

<sup>33</sup> Milliy istiqloqlar g‘oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. Mas’ul moharrir Q. Nazarov. Toshkent 2001y.

**Ikkinchi tamoyil** — davlatning bosh islohotchi sifatidagi rolini belgilaydi. Bu tamoyilga ko‘ra, davlat islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va izchillik bilan hayotga tatbiq etish mas‘uliyatini o‘z zimmasiga oladi. O‘zbekiston ma‘muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o‘tishda G‘arbdagi "yovvoyi kapitalizm" xatolaridan qochib, madaniy bozor iqtisodiyoti yo‘lini tanladi. Bunda davlat iqtisodiyotdan chekinmaydi, aksincha, iqtisodiy barqarorlik, madaniy raqobat va ommaviy farovonlikni ta‘minlovchi yagona umummilliy manfaat ifodachisi sifatida faol ishtirok etadi. Davlatning bosh islohotchi bo‘lishi islohotlar davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qarshiliklarni bartaraf etish va jarayonlarning tizimli borishini kafolatlaydi.

**Uchinchi tamoyil** — qonun ustuvorligini ta‘minlashni ko‘zda tutadi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari hamma uchun majburiy bo‘lib, hech qanday istisnosiz hurmat qilinishi va ularga so‘zsiz rioya etilishi shart. Qonunchilik jamiyat a‘zolarining huquqiy tartibini belgilovchi va siyosiy hokimiyatni mustahkamlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Shu bilan birga, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar qonunlarni doimiy ravishda takomillashtirishni, ya‘ni qonunchilikka ijodiy yondashuvni talab etadi. Ushbu tamoyil milliy mustaqillikni mustahkamlash bilan birga, bozor islohotlari uchun zarur huquqiy bazani yaratadi hamda siyosiy tizimning demokratlashuvini, inson huquqlari va farovonligi ta‘minlanishini kafolatlaydi.

**To‘rtinchi tamoyil** – faol ijtimoiy siyosat o‘tkazish. O‘zbekistonda bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholining demografik holatini hisobga olgan holda, uni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta‘sirchan choralar ko‘rish lozim bo‘ladi. Bu tamoyil iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarining dialektik aloqadorligiga tayangan holda sotsial siyosat yuritish zarurligini asoslaydi. O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti ijtimoiy sohaning moddiy bazasini mustahkamlaydi, ijtimoiy sohaning rivojlanishi esa inson omilini faollashtirib, iqtisodiyotga kuchli ta‘sir ko‘rsatishi zarur. Ikki sohaning dialektik aloqadorligi ishlab chiqarishning moddiy va insoniy omillari yaxlitligidan kelib chiqadi.

**Beshinchi tamoyil** – bozor iqtisodiyotiga asta-sekin, bosqichma-bosqich o‘tish. Bu tamoyil O‘zbekiston modelining tamal toshi, uning asosiy mezonidir. Bozor iqtisodiga o‘tish – bu mavjud iqtisodiy tuzumni ta‘mirlab takomillashtirish emas, balki tamoman yangi bozor tizimini yaratishni bildiradi. Bu yo‘l revolyutsion emas, balki evolyutsion yo‘ldir. Bu o‘tish davri bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga oluvchi uzoq davr ekanini bildiradi va odamlar uchun mutlaqo yangi hayot falsafasi hisoblanadi. Mazkur tamoyilga binoan islohotlar tadrijiy yo‘l bilan, ular mustabid-rejali iqtisoddan sekin-asta bozor tizimiga o‘tishini, ammo bu talafotsiz, larzalarsiz bo‘lishini bildiradi. Shoshma-shosharlik bilan bozor qoidalarini hayotga joriy etib bo‘lmaydi. Buning uchun tayyorgarlik va muayyan vaqt talab qilinadi.<sup>34</sup>

<sup>34</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga

## XULOSA

Mustaqillik yillarida erishilgan barcha yutuq va marralar, avvalambor, Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, uzoq istiqbolga mo‘ljallangan oqilona strategiyaning amaliy natijasidir. XX asrning 90-yillarida sobiq tuzumdan meros qolgan nochor iqtisodiyot, paxta yakkahokimligi va ijtimoiy tushkunlik sharoitida mamlakatni og‘ir inqirozdan olib chiqish o‘ta murakkab vazifa edi. Bunday qaltis vaziyatda xalqimizning baxtiga uzoqni ko‘ra biladigan, jasoratli Yo‘lboshchining borligi davlatimiz taqdirini hal qiluvchi omil bo‘ldi.

O‘zbekiston o‘zining yangi tarixi davomida jahon hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilgan «o‘zbek modeli» asosida barqaror rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Bugungi kunda ushbu modelning hayotiyligi va samaradorligi xalqaro ekspertlar hamda ko‘plab xorijiy davlatlar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, davlatning bosh islohotchi sifatidagi mas‘uliyati, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy himoya va islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ko‘zda tutuvchi besh tamoyil milliy davlatchiligimizning mustahkam tamal toshini qo‘ydi. Aynan ushbu strategik yo‘l samarasida mamlakatimiz barqaror taraqqiyot va buyuk kelajak sari ishonchli odimlamoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. M. J. Karimova. Toshkent “EFFECT-D” -2022
2. Milliy istiqloq g‘oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. Mas‘ul moharrir Q. Nazarov. Toshkent 2001y.
3. Markaziy Osiyo: G‘OYAVIY jarayonlar va mafkuraviy tahdid. Mas‘ul moharrir Q. Nazarov. Toshkent – 2001y.
4. Karimov I. A. Mamlakatimizda demokrtik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.:”O‘zbekiston”, 2010.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» mavzusidagi ma‘ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011.